

MAHSULOT TANNARXINI REJALASHTIRISH VA TAHLIL QILISH USULLARINI SAMARALI QO‘LLASH MASALALARI

Raimkulova Kamola Tagirovna

Mustaqil izlanuvchi, +998993067688

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20132469>

Annotatsiya: Ushbu tezisdanoat mahsulotlari tannarxini rejalashtirish va tahlil qilish jarayoniga yashil komponentlarni kiritish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Mamlakatimizda yashil sanoat, yashil ishlab chiqarish tizimlari kabi ekotizimlarni joriy qilish haqida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *iqtisodiyot, mahsulot tannarxi, yashil innovatsiyalar, Yashil Makon, ekotizim, yashil sertifikat, ishlab chiqarish, sanoat, rejalashtirish*

Abstract: This thesis examines the possibilities of introducing green components into the process of planning and analyzing the cost of industrial products. In our country, it is studied about the introduction of ecosystems such as Green Industry, green production systems.

Keywords: *economy, product cost, green innovation, green space, ecosystem, green certificate, manufacturing, industry, planning.*

Hozirda yashil va raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy transformatsiyaning asosi hisoblanadi, bu ikki yo‘nalish barqaror rivojlanishda integratsiyalashuvchi rolni bajaradi. “Yashil iqtisodiyot” oldida turgan bir qator ekologik muammolar: iqlim o‘zgarishlari, bioxilma-xillikning kamayib borishi, tabiiy kapital zaxiralarini tugab borishi, ichimlik suvi tanqisligi, energiya sarfi kabi masalalar o‘z yechimini kutmoqda. Aytish joizki, dunyo miqyosida yashil texnologiyalar fanga avval tadqiq qilinmagan yangi yo‘nalish bo‘lib kirdi va bu innovatsiyalar bo‘yicha hali to‘liq tadqiqotlar olib borilgani yo‘q. Bu nazariyalar ilm-fanga 1990 yillar oxirida kirib keldi. AQSHning Garvard universiteti professori Daniel Nocera (2015) quyosh nuri yordamida suvni vodorod bilan kislorodga ajratadigan Sun‘iy barg texnologiyasini yaratdi. Olim bakteriyalar yordamida CO₂ ni yoqilg‘iga aylantiruvchi Bionic Leaf loyihani kashf qildi [1]. AQSH dagi Chikago va Stenford universitetlari professorlari YI Cui va Shirley Meng (2021) nanomateriallar va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shdi: litiy-ion batareyalari va energiya saqlash tizimlarini yaratdilar [2]. Avstraliyalik olimlar Martin Grin va Vena Sahajvalla (2023) mikro-zavod va “yashil po‘lat” yordamida chiqindilarni qayta ishlash mexanizmlarini yaratib, kremniy elementining quyosh panellarini ishlab chiqishdagi muhim rolini o‘rgandilar. Mamlakatimiz olimlaridan Xakimjanov Omon va Avazov Sardor (2024) “yashil tozalash texnologiyalari” ni sanoat va agrosanoat tarmoqlariga joriy etish yuzasidan tadqiqot olib bordilar [3].

Xalqaro tajribada sanoat tarmoqlari energiya samaradorligini oshiruvchi, havoni tozalovchi ekologik yashil tizimlarni faoliyatlariga joriy etmoqda. Xitoy 2002 yilda chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish maqsadida rasman sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasini qabul qildi. Yashil iqtisodiyot va yashil rivojlanish tamoyillariga o‘tishni tezlashtirish maqsadida Xitoy “yuqori samarador, toza, kam uglerodli” quyidagi 4 ta unisurni belgilab oldi: yashil zavod, yashil mahsulot, yashil sanoat parklari, yashil ta‘minot zanjiri [4]. Bu unisurlar Xitoyda “yashil ishlab chiqarish tizimini” ning dastlabki tamal toshlari bo‘lib xizmat qildi (Zeng D. Zhihua va Shi L, 2018). Bugungi kunda Xitoyda 2 mingdan ortiq “yashil zavod”lar (asosan mashinasozlik, elektronika, qurilish materiallari va yengil sanoatda) va 170 ta “yashil sanoat parklari” faoliyat yuritmoqda.

Buyuk Britaniyaning kosmetika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi UNILEVER kompaniyasi LCC usulidan foydalanishni yo'lga qo'ygan va 2030 yilga qadar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida uglerod gazlarini 50% ga kamaytirishni reja qilgan. AQSH dagi elektromobillar ishlab chiqarishga mo'ljallangan TESLA avtomobil kompaniyasi Circular Costing va Eco-efficiency Modeling usullaridan foydalanmoqda. Shvetsiyaning IKEA kompaniyasi esa mahsulot tannarxiga utilizatsiya va tara qiymatini kiritmoqda.

Yashil texnologiyalar mahsulot tannarxiga qay darajada ta'sir qilishini quyidagi jadvalda kuzatamiz:


1-jadval. Yashil innovatsiyalarning mahsulot tannarxiga ta'siri tahlili

N ^o	Tannarx elementi	Yashil komponent
1	Xomashyo va materiallar	Eko-sertifikatlangan, qayta ishlangan
2	Energiya	Qayta tiklanadigan manba (quyosh, shamol energiyasi)
3	Logistika	Transportda zararsiz yoqilg'i
4	Chiqindi va utilizatsiya	qayta ishlab chiqarish mumkin
5	Uglerod gazlari	havoda zararli gazlar salmog'i kamayadi

Manba: “Reuters agency” ma'lumotlari yordamida muallif tomonidan tayyorlandi

Mazkur kam sonli tadqiqotlarni o'rganib, quyida sanoat mahsulot tannarxini rejalashtirishning yangi innovatsion yashil usullarini ko'rib chiqish mumkin:

1. Life Cycle Costing (LCC)-Mahsulot jami hayotiy davri xarajatlari hisobi
2. Sustainable Cost (SCA) - Barqaror ishlab chiqarish xarajatlari olinadi
3. Environmental Cost(ECA) - Ekologik xarajatlar, chiqindi, tozalash xarajatlari
4. Carbon Costing - CO₂ chiqindilari narxi hisobi olinadi
5. Green ABC - Faoliyatda yashil xarajatlar taqsimoti bo'ladi
6. Circular Costing - Qayta ishlash, qayta foydalanish xarajatlari, takroriylik
7. Eco-Efficiency Cost Modeling-Ekologik samaradorlik, iqtisodiy natija nisbati
8. Natural Capital Costing - Tabiiy resurslar qiymati tannarxga kiritiladi
9. Triple Bottom Line Planning - Iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy ko'rsatkichlar
10. Green Lean Costing - Tejamkor, ekologik optimizatsiya



1-rasm. Yashil omillarning mahsulot tannarxiga ta'siri tahlili

Manba: internet tarmog'i yordamida muallif tomonidan tayyorlandi

Jadval natijalariga ko'ra, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxiga ta'siri jihatidan uglerod gazlarining salmog'i yuqori ekan (14%), keyingi o'rinda yashil energiya 12% ni tashkil qilmoqda. Ushbu tahlillarga tayangan holda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibiga yashil komponentlarni kiritish ijobiy natija berishi mumkinligini ta'kidlash lozim.

Mamlakatimizda joriy 2025 yil nomi “Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili dasturida “Yashil sertifikat” tizimini joriy etish, ekologik toza texnologiyalarni o'ziga joriy qilgan korxonalariga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratish belgilandi. Iqtisodiy o'sishning yangi “yashil rivojlanish”, “yashil transformatsiya” modeliga o'tish joriy etilmoqda. Bu borada loyihalarni amalga oshirish uchun Germaniya O'zbekistonga 3 mln.yevro grant, Jahon Banki 46,25 mln.AQSH dollari miqdorida mablag' ajratdi [5].

“2019-2030 yillar uchun “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, energiyaning umumiy iste'mol ulushida 40 % ga yetkazish masalalari, jami elektr energiyasini ishlab chiqarishda ularning ulushini 2019 yildan boshlab 10 % ga oshirib borish, 2030 yilga qadar 25% dan oshirish yuzasidan vazifalar belgilab berilgan [6], [7].

Xulosa qilib aytganda, mahsulotning hayot sikli va ta'minotidagi barcha bosqichlarida imkon qadar ekologik toza resurslardan foydalanish yo'lga qo'yish zarurati mavjud. An'anaviy tarmoqlarni, uskunalarni yangilash, yangi energiya manbalari yordamida ishlab chiqiladigan, xalqaro miqyosda raqobatbardosh, ilg'or raqamli innovatsiyalar va texnologiyalarga asoslangan yashil sanoatni yaratish darkor.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida “Yashil moliya” va “Yashil investitsiya” sohalarini ham rivojlantirish dolzarb ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Daniel G. Nocera (2024), “Sustainable Energy Production and Manufacturing Using Only Sunlight, Air, and Water” // Harvard University, USA, 2024, 249-258 b https://doi.org/10.1142/9789811282324_0024
2. Yi Cui, Y Sh. Meng (2019), “Pathways for practical high-energy long-cycling lithium metal batteries” // Nature Publishing Group, UK, 2019, 3- edition, 180-186p, <https://doi.org/10.1038/s41560-019-0338-x>
3. O.Xakimlanov, S.Avazov (2024), “Микобиота сои в условиях Узбекистана”// Илм-фан va innovatsiya, Ilmiy-amaliy konferensiyasi, Toshkent, 2024, 18-nash, 93-97b, <https://doi.org/10.5281/zenodo.12516176>
4. Zeng, Douglas Zhihua and Shi, Lei (2018). “China's Green Transformation through Eco-Industrial Parks”, 2018
5. Yashil Iqtisodiyot platformasi rasmiy sayti - www.green.imv.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” 2022 yil 02 dekabrda PQ 436-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-6303230>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025 yil 30 yanvardagi PF 16-sonli farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
8. Mamajonov, F. (2024), “Biznesni raqamlashtirishning iqtisodiy mazmuni va biznes transformatsiyasining nazariy asoslari” // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024, 5-nashr, 812-815b, <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>
9. Mamatov M.A., (2024), “ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА” И “ЗЕЛЕНЫЙ РОСТ”// “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari: muammo va zamonaviy yechimlar. yosh olimlar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, Guliston GulDU, 2024-yil. 54 bet
10. Nurov,Z., Rajabova, M. X. (2022). «ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ» ДА ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИНИНГ ИҚТИСОДИ // Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2022, 2(5), 781787 betlar
11. Iminov T.K., Vahobov A.V., Teshaboyev T.Z., Vo‘taboyev M.T, (2019), «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития, Monografiya. T: «Алоқачи», 2019, 480 bet
12. Kenjabaev A.T,(2023),“Yangi O‘zbekiston”da raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirish yo‘llari” // Biznes va iqtisodiyotda raqamli transformatsiya, 2023, 25-32 b